

Fan platformasi		
Fanning to'liq nomi: Sifat menejment tizimi		
Fan kodi: SMT3606/ SMT3601	Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS): 6/1	davomiyligi: 1 semestr
Kafedra: Sifat menejmenti va mahsulotlar xavfsizligi		
Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun: 60711300 —Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti (kimyo va oziq – ovqat)		
Fan ma'ruza o'qituvchisi: Hamroqulov Mahmud G'ofurjonovich		
Fanga ajratilgan umumiy soatlar: 180 Kurs ishiga ajratilgan umumiy soatlar: 30	Email: khamrakulovtki@gmail.com	
Fan seminar mashg'ulotlari o'qituvchisi(lari): Hamroqulov Mahmud G'ofurjonovich		
Prerekvizitlar: Texnik hujjatlarni tayyorlash, Mahsulot ishlab chiqarish va sifat, Metrologiya 1-2, standartlashtirish asoslari		Tanlov turi: majburiy fan
Fanning qisqacha bayoni: sifat menejmenti tizimlarini baholashda menejment tizimi obyektlarini aniqlash, tanlash, baholash jarayonlar va mahsulotlari sifatni boshqarish, uning nazariy va tashkiliy asoslarini o'zlashtirib olishlari, sifat menejmenti tizimining natijaviyligi va samaradorligi hamda ishchi holatini ta'minlash uchun sifat boshqaruvi obyektlari va ularni aniqlash, mahsulot sifati va ularning raqobatbardoshligini ta'minlashdagi ahamiyatini o'rgatadi.		

Fanning maqsadi: talabalarga sifat menejmenti tizimini xalq xo'jaligining tarmoqlarida sifatni ta'minlashdagi o'rni va roli, korxonalar va tashkilotlarda sifat menejmenti tizimi, respublikamizda sifat boshqaruvi tizimi bo'yicha olib borilayotgan islohatlar, sifatni boshqarishning tashkiliy, nazariy va huquqiy asoslarini o'zlashtirish, sifat menejmenti obyektlari va ularni aniqlash, jarayon va mahsulot sifati va raqobatbardoshligini ta'minlashdagi ahamiyatini o'rgatishdan iborat.

Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi:

➤ sifat tushunchasi va raqobatbardoshlik iqtisodiy kategoriyalari, sifatni ta'minlashning iqtisodiyotdagi o'rni, sifatni ta'minlashda xorij tajribasi, yalpi sifat boshqaruvi (TQM)ning maqsadi, sifatni boshqarishning tashkiliy-huquqiy asoslari va uning vazifalari to'g'risida *haqida tasavvurga ega bo'lish;*

➤ sifatni baholash usullarini qo'llash, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq sarf-xarajatlarni hisoblash, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, ishlab chiqarishni takomillashtirish, sifatni oshirishning texnikaviy asoslarini yarata bilish, me'yoriy hujjatlar, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha ISO tashkiloti, ISO 9000-2000 seriyasidagi standartlarni tadbqiq etishni *bilishi va ulardan foydalana olishi;*

➤ sifatni baholash, statistik usullar, sifatni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash, standartlashtirishni amalga oshirish, me'yoriy hujjatlar, asosiy talablarni shakllantirishi, xalqaro standartlarni tadbqiq etish, davlatlararo savdo aloqalarini yo'lga qo'yish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

Ma'ruza mashg'ulotlari

Ma'ruza mashg'ulotlari katta sig'imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv auditoriyalarida olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

Kurs ishi

Talaba kurs ishini bajarish jarayonida adabiyotlardan foydalanib, texnologik hisoblarni to'g'ri bajardi. Apparat va jihozlarni tanlaydi. Kurs ishi tushuntirish, hisoblash va grafik bo'limlardan iborat.

Mustaqil ta'lim

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan quyidagi vazifalardan biri

tayyorlanadi: o'qituvchi tomonidan berilgan muammoni "Keys-stadi" texnologiyasi asosida echimini topish, taqdimot tayyorlash, berilgan mavzu bo'yicha testlar tuzish, referat tayyorlash.

№	Fan mavzulari	Ma'ruza soatlar hajmi	Amaliy mashg'ulot soatlar hajmi	Kurs ishi	Mustaqil ta'lim soatlari
1	Sifatni boshqarish va sifat to'g'risida umumiy ma'lumotlar va tushunchalar	2	4		9
2	Sifat menejmenti tizimi to'g'risidagi ta'limot tarixi	2	4		9
3	Sifatni boshqarishning uslubiy asoslari	2	4		9
4	ISO 9000 seriyali standartlari talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimlari	2	4		9
5	Sifat menejmenti tizimiga talablar	2	4		9
6	Sifat menejmenti tizimini hujjatlashtirish	2	4		9
7	Sifat menejmenti tizimida rahbariyatning javobgarligi	2	4		9
8	Sifat menejmenti tizimida resurslarni boshqarish	2	4		9
9	Mahsulotni ishlab chiqarish	2	4		9
10	O'lchash, tahlil qilish va yaxshilash	2	4		9
11	Korxonada va tashkilotlarda sifat menejmenti tizimini ishlab chiqarish va joriy etish	2	4		9
12	Sifat menejmenti tizimi auditori	2	4		9
Jami		24	48	30	108

Asosiy adabiyotlar

1. Ismatullayev P.R., Axmedov B.M., Matyakubova P.M., Xamrokulov G'.X., Turayev Sh.A. Sifat menejmenti tizimi va uni sertifikatlashtirish. Darslik. Toshkent, "Sano-standart", 2014. – 330 b.
2. A.A.Abduvaliyev Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, sifat // o'quv qo'llanma, T.: Toshkent, 2008. – 267 b.
3. Xojiaxmedov G'.X., Yaxyayeva I., Umarova M., Usmonov A. Sifat menejmenti. Darslik.-T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 185 b.
4. Choriyev A.J Oziq-ovqat mahsulotlari menejmenti xavfsizligi fanidan elektron o'quv-uslubiy majmua matni // Metodik qo'llanma, T.: TKTI, 2013. – 328 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. Gotzmani K., Tsiotras G.D. An empirical study of the ISO 9000 standards' contribution towards TQM // International Journal of operations & Production Management 2009.
6. Xojiaxmedov G'.X., Yo'ldoshev N.Q., Yaxyayeva I. Mahsulot sifatini boshqarish. Darslik.-T.: TDIU, 2011-y. – 185 b.
7. Yusupova D.T., Badalova M. Mahsulot sifatini boshqarish. O'quv qo'llanma. -T.: TTESI, 2009-y. – 102 b.
8. Абдувалиев А.А. и др. Основы стандартизации, сертификации, метрологии и управления качеством продукции. Учебное пособие. - Ташкент: Издательство ТГТУ, 2002. - 287 с.
9. Ахмедов Б.М., Абасов А.А. Система менеджмента качества – основа конкурентоспособности. Учебное пособие. Изд. «Асп-Матбуот». 2004г. -96 с.
10. Ismatullayev P.R., Kodirova SH.A. Metrologiya asoslari. O'quv qo'llanma. "Tafakkur" nashriyoti, –Toshkent, 2012y. -304 b.
11. Трофимов, А.В. Аудит качества. Учебное пособие. –Тамбов.: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2009. – 96 с.
12. Yo'ldoshev N.Q., Yusupova D.T. Sifat menejmenti. O'quv qo'llanma.-T.:TDIU, 2019-y. – 270 b.

Axborot manbalari

13. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali

14. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar milliy bazasi
15. www.mineconomy.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)
16. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
17. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)
18. www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)
19. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi)
20. www.standart.uz (O'zstandart agentligi)
21. www.smsiti.uz (Standartlar instituti)
22. www.uza.uz (O'zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti)

Kontakt soatlari*: mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma'lumotlar va turli materiallar bo'yicha savollarga quyidagi grafik asosida o'qituvchiga murojaat qilishingiz mumkin:

№	Kun	Vaqt	Xona
1.	Dushanba	11.00-13.00	302
2.	Payshanba	14.30 – 16.00	206